

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI


NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

« TUPROQSHUNOSLIK ACOCJAPI »

FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

(5140500 -Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo`nalishi)



Navoiy – 2010

Ma'ruza matnlari to'plami oliy o'quv yurtining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan barcha mutaxassisliklar talabalari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: o'qituvchi: Jonzoqov A.B

Taqrizchi: Geografiya kafedra mudiri: dats: Raxmatov Yu.B.

Navoiy Davlat Pedagogika Institutini ilmiy uslubiy kengashida ko'rib chiqrilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

2010- yil « ___ » _____ dagi _____ -sonli majlis bayoni.

KIRISH

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan tuproqlarni xosil bo'lish jarayoni, rivojlanishi, tarkibi va xossalari, xamda geografik tarqalish qonuniyatlarini o'rganish asosida talabalar tabiiy omillarning o'zaro murakkab aloqadorliklari mohiyati to'g'risida tassavurga ega bo'ladilar. Tuproqda kechadigan kimyoviy, fizikaviy va biologik jarayonlar tufayli uning tarkibi, xossasi, xususiyatlari va unumdorlik darajasini o'zgarib borishi bo'yicha ma'lumot oladilar. SHular asosida bo'lg'usi mutaxassislar tuproq xossa va xususiyatlarini yaxshilashga va unumdorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish, ularni muxofaza qilish vazifalarini bajarishlari lozim. SHuning uchun xam talabalarga tuproqning xosil bo'lishi, rivojlanishi, tarkibi va xossalari, ulardan unumli foydalanish yo'l yo'riqlari, muxofaza qilish masalalari bo'yicha mukammal ma'lumot byer ish taqazo qilinadi. .

O'quv fanning maqsad va vazifalari. Fanni o'qitishdan maqsad: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy vositasi bo'lgan tuproqlarni hosil bo'lish jarayoni, rivojlanishi, tarkibi va hossalari hamda tarqalish qonuniyatlarini o'rganish hamda talabalarga tabiiy omillarning o'zaro murakkab aloqadorliklari mohiyati to'g'risida ma'lumot byer ishdan iborat.

Fanning vazifasi: Tuproqda kechadigan kimyoviy, fizikaviy va biologik jarayonlar tufayli uning tarkibi, xossa-xususiyatlari va unumdorligini o'zgarib borishi bo'yicha ma'lumot byer ish. Shular asosida bo'lg'usi mutahassislarda tuproq xossa va xususiyatlarini yaxshilashga va unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Tuproqshunoslik o'z mohiyatiga kura bir qator tabiiyot fanlari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham talabalar tuproqda ro'y byer adigan jarayonlarning mohiyatini tasavvur qilishlari uchun geologiya, kimyo, fizika, botanika, zoologiya, mikrobiologiya, o'simliklar fiziologiyasi, matematika fanlari bo'yicha ham yetarli bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari tuproqshunoslik fani ixtisoslik fanlari uchun ham poydevor fan hisoblanadi.

Fanni o'qitilishida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Tuproqshunoslik fanini o'qitilishida turli jadvallar, xaritalar tarqatma matyer iallar va o'g'itlar namunalaridan foydalaniladi. Tuproq hossalari va unumdorligini hamda ekinlar hosildorligini o'zgarishlarini komp'yuter texnikasi yordamida maxsus programmalash asosida taxlil qilish mumkin.

2. MAIZU. TUPROQLAR GEOGRAFIYASI FANINING MAKSADI VA VAZIFALARI, O'RGANISHNING AXAMIYATI.

Reja.

1. Tuproq geografiyasi fan sifatida shakllanishi va vazifalari.
2. Tuproqshunoslikning rivojlanish tarixi.
3. O'zbekiston qishloq xo'jaligini iqtisodiy islohatlarini chukurlashtirishda tuproqlardan okilona foydalanish asoslari xakida.

Tayanch tuchunsha. *Tuproqshunoslik fani, uning azifalari va metodlari. Tuproq qishloq xujaligi ishlab chikarishning asosiy vositasi ekanligi. Unumdorlik tuproqniq asosiy sifat belgilari. Tuproqshunoslikni geografiya fanlari tizimida tutgan urni. Tuproqshunoslikni rivojlanishida V.V.Dokuchayev, N.M. Sibyer sev, P.A.Kostichev, K.K.gedroys, V.R.Vilyams va Shark mutaffakirlari Al Roziy, Ibn Rashid, Byer uniy, Bobur va boshkalarning tutgan urni. O'rta Osiyo xududida tuproqlarni o'rganish tarixi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining va Oliy majlisning qishloq xo'jaligini rivojlantirish buyicha karor va farmonlari moxiyati.*

Adabiyotlar. 1,2,2,3,4,12,13,12,15.

Tuproqshunoslik ko'plab qishloq xo'jalik fanlarining negizi bulishi bilan bir katorda, insonlarni ardoklab, noz-ne'matlar bilan tuydirayotgan bitmas-tuganmas boyluk hamda zaruriy ozik maxsulotlari va kyer akli xomashyo yetishtiradigan manba-tuproq xakidagi fandır.

Qishlok xo'jalik ishlab chikarishining asosiy vositasi bulmish yer -tuproq biokatlamining barkarorligi va uning ekologiya holatini saklab turishda xam nixoyatda katta rol uynaydi. Tuproqshunoslik mutaxassisi uzi faoliyat kursatayotgan xo'jalik yoki aloxida xudud tuproqlarini batafsil o'rganish, shu bilan birga tuproq unumdorligini oshirish tadbirlarini kullashning sir-asrorlarini juda yaxshi bilishi lozim. **Tuproqshunoslik**-tuproq xakidagi fan bulib, tabiiy jins va ishlab chikarish vositasi xisoblangan tuproqniq kelib chikishi, tuzilishi, tarkibi va hossalari, unumdorligi hamda geografik tarkalishi konunlarini urganadi. Tuproq va uning hossalari xakidagi dastlabki tushunchalar va bilimlar kadimgi davrlardan boshlab dexkonchilik talablari asosida yuzaga kela boshladi. Ilmiy fan sifatida tuproqshunoslik fani mamlakatimizda XIX asrning oxirlarida shakllana boshladi va rivojlandi. Tuproq deganda suv, havo hamda turli tirik va ulik organizmlar ta'sirida tabiiy ravishda uzgargan tog' jinslarining yuza yoki tashki gorizontlariga aytiladi. Unumdorlik tuproq o'simliklarni turli ozik moddalar, suv, xavo hamda issiklik bilan ta'minlash kobiliyatidir.

Tuproqshunoslik dexkonchilik hamda agrokimyo kabi kator muxim agronomik fanlardan biridir. yerga ishlov berish, ugitlash va almashlab ekish sistemasini kullash, kimyoviy melioratsiyalash yer ning sho'rlanishiga karshi kurash tadbirlarini olib borishda tuproq hossalari yaxshi bilish kerak.

Tuproqshunoslik fan sifatida uncha katta tarixga ega bulmasada, tuproq xakidagi dastlabki ma'lumotlar bundan 2-3 ming yillar oldin yuzaga kelgan. kadimgi Xitoy, Misr, xindiston, Vavilon, Armaniston va Assuriyalik olimlar faylasuflarning asarlarida uchraydi. usha davrlardayok, insonlar yer ga solinadigan maxalliy ugiltar va shuningdek dukkakli boshokli ekinlar, ekinlar hosildorligini oshirishning muxim omili ekanligini tajribalar-dan bilganlar.

«Tuproq,- deb yozadi V.V.Dokuchayev - har kandy o'simlik va hayvonot organizmi kabi goh rivojlanib, goh parchalanib, goh progressivlashib, goh regressiyalashib, abadiy yashaydi va uzgaradi». Olim butun yer yuzida kutb shimoliy urmon, dasht, Cho'l va subtropik zonalardan iborat beshta tabiiy zonaga ajratib bu zonalarning xammasini batafsil ta'riflab byer adi. Dokuchayev har bir tuproqning hosil bulishi tabiiy zonadagi iklimga, o'simliklar va hayvonot olamiga, tuproq paydo kiluvchi jinslarga, joyning relefi va yoshiga boglik ekanligini isbotladi. Keyinchalik o'rta Osiyoda tuproqshunos olimlar tuproqlar geografiyasi, fizikasi va melioratsiyasi borasidagi ishlari bilan bir katorda, ayniksa paxtachilik rayonlari tuproqlarini o'rganishda, A.M.Pankov, M.U.Umarov, M.B.Baxodirov, A.M.Rasulov va boshkalarining xizmatlari katta buldi.

Tuproq geografiyasi fanining vazifalari - tuproqlarni paydo kiluvchi tabiiy sharoitlar, tuzilishi, tarkibi, tuproq tiplari, tipchalari, ularning biologik, kimyoviy va fizik hossalari hamda tuproqlarni geografik tarkalish konuniyatlari va ulardan qishloq xujaligida samarali foydalanish, ularning unumdorligini oshirish yuzasidan olib boriladigan chora-tadbirlarni ishlab chikishdan iboratdir.

Tuproq geografiyasi fani, fan sifatida mamlakatimizda XIX asrning oxirida V.V.Dokuchayev, N.M.Sibirsev va S.S. Neustruyevlarning goyalari va ilmiy asarlari asosida shakllana boshlandi. Ayniksa S.S.Neustruyevni 1910-1921- yillari Turkiston ulkasini Namangan, Andijon, Ustyurt buyi, Shyer obod va korakalpogiston avtonom xududining tuproq va botanik geografik tadbirkotlarini o'rganishdagi ishlari katta axamiyatga ega.

Keyinchalik O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonni tuproqlarini I.P.Gyer asimov V.A. Kovda, N.A.Rozanov, ye.V.Lobova, M.A.Orlov, S.N. Rujov, M.A. Pankov, M.U. Umarov, M.B. Baxodirov, A.M.Rasulov va boshkalarini tuproqlar georafiyasi, fizikasi va melioratsiyasi borasidagi ishlari bilan bir katorda, ayniksa paxtachilik rayonlarining tuproqlarini hossa - hususiyatlarini o'rganishdagi xizmatlari juda katta buldi.

Hozirgi mustaqil O'zbekiston tabiiy sharoitlari, ularning xilma-xil tuproqlarini hossa-hususiyatlarini o'rganish ulardan samarali foydalanish shu kunning eng dolzarb masalasidir.

Bu borada hozirgi vaktda sugoriladigan yer larning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, tiklash borasida ancha ishlar amalga oshirilmokda. Tuproq tiplarini, tipchalarini hossa-hususiyatlariga kura turli agrotexnik usullaridan tugri va samarali foydalanish

ishiga e'tibor kuchaytirilmokda.

Hozirgi vaktida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining viloyat, tuman ho'jaliklar tuproqlarini o'rganish, uning hossa-hususiyatlari, unumdorligini asosida ball bonitetlarini aniqlash tugrisida karori kabul kilindi. Turli mintaka tuproqlarini o'rganish va tuproq haritalarini tuzish uchun «Uzdavlatyer loyixa», yer kadastr filiali ekspeditsiyalar tashkil etib, O'zbekiston tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadkikot ilmgohlari, respublikadagi Oliy ukuv yurtlarining tuproqshunoslik kafedra hodimlari bu murakkab ishlarini bajarishni tashkil etib, tuproqlarning unumdorligi va boshka hususiyatlari chukur organilmokda.

Darxakikat, tuproqniq asosiy hossalari va sifatini bilmay turib, uning unumdorligini mutassil oshirish, hamda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, ulardan yukori va sifatli hosil olish, tuproq unumdorligini oshirish uchun uning hozirgi holatini bilishni takozo etadi. Bu kursatkichlar bilan bir katorda har xil tuproqlarga minyer al, organik ugitalar kullash shart-sharoitlari hamda suv, sug'orish va melioratsiya ishlarini olib borish xam bu tuproq tipi, tipchalari, hossa hususiyatlarini bilish va samarali foydalanish tadbirlari olib borilishi kyer ak bulgan ishlar buyicha tavsiyalar bayon kilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining I - chakirik XI-XII-XIII sessiyalarida qishloq xo'jaligini tubdan rivojlantirish borasida bir kancha konunlar kabul kilindi. Ularda tuproq unumdorligini mutassil oshirish, muxofaza kilish va yer kadastrini ishlab chikish, yer resurslariga byer iladigan baxolarni xisoblashni takomillashtirishga karatilgan chora-tadbirlarni belgilashda muxim davlat siyosatini amalga oshirishni takozo etadi.

Insonlarni tuproqqa aktiv ta'sir kursatishi natijasida uning hossa-hususiyatlarini uzgarishi, unumdorligini oshishi yoki pasayishi, sho'rланishi, yer oziyalanishi, degumifikatsiya va ekologik xolatlarni sugoriladigan, sugorilmaydigan lalmi tuproqlarda kechishi, dexkonchilikda tuproqlardan foydalanishning axamiyatini kursatadi.

Yer azaldan xalkning eng asosiy va bebaxo boyligi, chinakam umumxalk mulki xisoblanadi. U mamlakatimiz milliy boyligining eng muxim qismi, ishlab chikarishni yuritishning asosiy negizidir. ayniksa yer qishloq xo'jalik ishlab chikarishida muxim vosita rolini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofik tabiiy boylıklar, jumladan, yer umumxalk boyligidir va ular davlat-muxofazasida turadi. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, Respublikamiz iktisodiy barkarorligini ta'minlashda, qishloq xo'jaligining bundan keyingi tarakkiyotini amalga oshirishda, axolini ozik-ovkat maxsulotlariga bulgan extiyojlarini yanada kondirishda tuproqlardan unumli va okilona foydalanish muxim axamiyatga ega.

Yer dan ilm-fan tavsiyalari asosida samarali foydalanish, uning muxofazasini tugri ta'minlash, shak-shubxasiz qishloq xo'jaligini rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Tuproqni har tomonlama yaxshilash, hosildorligini va iktisodiy samaradorligini oshirish qishloq xujaligi kelgusida rivojining muxim masalalaridan biridir.

Ishlab chikarishning har kandy vositalaridan tugri va samarali foydalanish ko'p jixatdan uning eng muxim hususiyatlarini kanchalik chukur va har tomonlama o'rganishga boglik. Bu eng avvalo, tuproqqa tegishli bulib, undan okilona foydalanish, tuproqning unumdorligi oshirish, sifatini, bonitirovkasini, iktisodiy baxosini, muxofazasini bilish, har xil o'simliklarni tuproq xolatiga kura ilmiy asoslangan., ketma-ketlikda ekish, tuproqqa ekologik «toza» ishlov byer ish usullaridan ugитlash, tuproqning fizik hossalari asosida kulay agrotexnika muddatlaridan muayyan texnologik ketma-ketlikda foydalanish, tuproq yer oziyasiga, sho'rlanishiga, zichlanishiga va boshkalarga karshi tadbirlarning muyayan elementlari anik konunchilik yuli bilan boshkarishni talab kiladi. Vujudga kelgan vaziyatda O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Yer kadastrı» tugrisidagi konuni va boshka agrar soxasidagi isloxotlarni xukukiy jixatdan ta'minlovchi konunlar va me'yoriy xujjatlarni kabul kilinishi, «qishloq xujaligida isloxotlarni chukurlashtirish Dasturi (199 000)» - yer dan okilona foydalanish, uni muxofaza kilish, qishloq xo'jaligini ilmiy jixatdan ta'minlashning xukukiy asosini yaratadi.

Savollar

- 1.Tuproqlarni geografik tarkalishi va rivojlanishi kaysi konuniyatlar asosida urganiladi.
- 2.O'rta Osiyolik olimlarning tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasining riiojlanishidagi kissasi xakida nimani bilasiz.
- 3.Tuproq muxofazasi deganda nimalarni tushunasiz.

3-MAVZU. TUPROQLARLARNING XOSIL BULISHI, TARAKKIYETI,TARKIBI VA XOSSALARI.

Reja.

- 1.Tuproqlarning kelib chikishi va rivojlanishida (genezisi) tuproq paydo kiluvchi omillarning axamiyati va ularning uzaro boglikligi.
- 2.Tuproq tasnifi. Tuproqlar nomenklaturasi va diagnostikasi.
- 3.MDH va O'zbekiston tuproqlarini rayonlashtirish.

Adabiyotlar. 1, 2, 4, 5, 6, 7,8, 10,12,

Tayanch tuchuncha. Tog' jinslarining nurashi (gipyer genez) va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarni yuzaga kelishi. Nurash jarayenida tog' jinslari va tarkibini fizikaviy, kimeviy va minyer alogik jixatdan o'zgarishi, birlamchi va ikkilamchi minyer allarni hosil bo'lishi. Nurash maxsulotlarini suv va shamol ta'sirida qayta yetqizilishi va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarni hosil bo'lishi. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning kategoriyalari (xillari) va ularning joylanishi.

Tuproqlarning genezisi va hossalari bilan tuproq paydo kiluvchi omillar orasida

mustaxkam uzaro bogliklikni V.V. Dokuchayev anikladi. Uning tavsiyasi bilan tuproq paydo bulishining tabiiy sharoitlarini, tuproq paydo kiluvchi omillar deb yuritiladigan bulindi, ularga tuproq ona jinsi, iklim, relef, o'simlik va hayvonot olami, tuproqning yoshi kabilar kiradi. Keyinchalik ushbu ta'limotni N.M.Sibirsev, P.A.Kostichev, V.R. Vilyams, S.A.Zaharov, S.S.Neustruyev va boshkalar rivojlantirdilar.

Tuproq paydo kiluvchi ona jinslar - tuproq paydo kiluvchi omillardan biridir. Ular ximiyaviy, mexanik va minyer alogik tarkibi, zichligi, tuproqning fizikaviy, fizik-mexanikaviy hossalarga, suv-xavo, issiklik, ozuka va tuz rejimlari, unumdorligiga katta ta'sir etadi.

Iklim. - tuproq hosil kiluvchi muxim omil bulgan iklim, o'simliklar usib rivojlanishida, tarkalishida, tuproqdagi biologik jarayonlar, suv, issiklik, xavo, ozuka rejimlariga; nurash va ishkorsizlanishiga, sho'rланishiga bevosita ta'sir etadi. Bu uzgarishlar tuproqning mexanik tarkibiga boglikdir. Tyer mik va tuproqning namlanish sharoitiga kura iklim gruppalari ajratiladi, bu yer da asosiy kursatkich - 10^0S dan yukori bulgan o'rtacha sutkalik harorat xisoblanadi.

<i>Iklim gruppalari</i>	<i>$10^0 S$ dan yukori bulgan harorat yigindisi</i>
<i>Sovuk (kutb) iklim</i>	$<500^0$
<i>Mu'tadil sovuk (boreal)</i>	$500^0 - 2000^0$
<i>Mu'tadil ilik(subboreal)</i>	$2000^0 - 3600^0$
<i>Ilik (subtropik)</i>	$3600^0 - 6000^0$
<i>Issik</i>	$>6000^0$

Iklimning tyer mik gruppalari yer ishlarida mintakalar tarzida tarkalgani uchun, ularni bioiklim yoki tuproq biotyer mik mintakalari deb ataladi.

Yog'inlar bilan namlanish sharoitlariga kura iklimning kuyidagi y asosiy gruppalari ajratiladi

<i>Iklim gruppalari.</i>	<i>Namlanish koeffitsenti</i>
<i>Juda nam (ekstragumid)</i>	$> 1,33$
<i>Nam (gumid)</i>	$1,33 - 1,00$
<i>YArim nam (semigumid)</i>	$1,00 - 0,55$
<i>YArimkuruk (semiarid)</i>	$0,55 - 0,33$
<i>kuruk (arid)</i>	$0,33 - 0,12$
<i>Juda kuruk(ekstraarid)</i>	$< 0,12$

Relef - uch gruxga., makrorelef, mezorelef va mikroreleflarga ajratiladi.

Makrooyelf deganda tekislik, baland tekislik, tog'lar singari yirik relef formalari tushuniladi. Bu relef xavo okimning harakatiga ta'sir etib, katta maydonlar iklimini shakllantirishda ishtirok etadi.

Mezorelef balandlikni kam uzgaradigan adir-kirlar past balandliklar va vodiylar kabi relef

shakllari kiradi. Mezoerlef tuproqda yoruglik, issiklik va namni tuplanishi va tarkalishida asosiy rol uynaydi.

Mikroerlef - reiefning kichik, past shakllari bulib, ularga pastkam joylar, dungchalar va yer yuzasi notekislilklari kiraldi. Mikroerlef tuproqni notekis namlanishi, fizik, ximik, hossalari, ozuka va tuz rejimiga ta'sir kiladi va tuproqlarning kompleks xolda tarkalishida asosiy rol uynaydi.

O'simlik va hayvonot olami - tuproq paydo kilish jaryonlarga ta'sir etuvchi eng kudratli omillardan biri - tirik organizmlar, ya'ni biologik omillar. Tuproqni paydo bulishining boshlangich davri xam turli organizmlarning tuproq ona jinslariga ta'siri bilan boglik. o'simlik va hayvonot olamining tuproq paydo bulishidagi roli va axamiyati xakida «Tuproqshunoslik» fanida siz bilan batafsil tanishganmiz.

Tuproqni yoshi - tuproq paydo kiluvchi jarayonlar ma'lum vakt birligida kechadi. MDHni janubida tarkalgan buz, kashtan va kora tuproqlar yoshi SHimoldagi urmon-sur, podzol, tundra, arktika tuproqlar yoshiga nisbatan ancha katta. Daryo tyer rasalarida - daryo soxillarida eng yosh tuproqlar tarkalgan, undan keyin birinchi tyer rasa, sungra ikkinchi, uchinchi va xakazo. Tyer rasalar buyicha yoshi oshib boradi. Tuproqni absolyut va nisbiy yoshi ajratiladi. Tuproq paydo bulishidan boshlab xozirga kadarga utgan vakt absolyut yosh xisoblanadi. Nisbiy yosh tuproq paydo bo'lish jarayonlardagi turli boskichlarning bir biri bilan almashinuv vaktini harakter laydi.

Insonlar uzining qishloq xujaligidagi faoliyati bilan tuproq va tuproq paydo kiluvchi tabiiy omillarga katta ta'sir etadi. SHuning uchun yukoridagi 2 ta omillarga yana bir omil antropogen omil kushiladi. Tuproq tabiiy sharoitlarining uzaro birgalikdagi ta'siri natijasida shakllanadi va asta-sekin uzgaradi. Insonlarning tuproqqa yunaltirilgan ta'sir etish natijasida tez va kiska muddatda uzgarishi mumkin. Insonlarning tuproq unumdorligini oshirishga karatilgan tadbirlar natijasida yangi madaniy, samarali va potensial unumdorligi yukori bulgan tuproq yuzaga keladi. ammo tuproqdan notugri foydalanish, aksincha tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi.

Muayyan tabiiy sharoitlarda, tuproq paydo kiluvchi omillarning ta'sirida, turli ona jinslardan tuproq profilining shakllanishi tuproqni rivojlanishi deyiladi. Evolyutsiyasi deganda tulik ravishda yaxshi rivojlangan tuproqlarning turi va yangi vujudga keladigan tuproq paydo kiluvchi omillar ta'sirida uzgarishi tushuniladi. buning natijasida muayyan genetik tipchaga kiradigan tuproq boshka tipchaga yoki tipga utadi. bularga sabab., *1) iklimning sovishi yoki isishi, namlikni oshishi yoki kuruklashuvi 2) reiefga kura grunt suvlarni uzgarishi 3) tuproq paydo bo'lish jarayonlari natijasida tuproq tarkibi va tuzilishida ruy byer adigan uzgarishlar.*

Tuproqlarni uxshash belgilari, kelib chikishi va unumdorligi kabi xususiyatlarga kura

muayyan gruppalariga birlashtirishga tuproq klassifikatsiyasi (tasnifi) deyiladi. MDH tuproqlarini klassifikatsiyalash muammolari bilan V.V.Dokuchayev, N.M.Sibirsev, P.S.Kossovich, N.D.Glinka, S.S.Neustruyev, K.K.Gedroys, ye.N.Ivanova, N.N. Rozov, I.P.Gyerasimov, A.A.Zavalishina va boshkalar. O'zbekiston tuproqlari buyicha Respublikamiz olimlari M.U.Umarov, S.A.SHuvalov, N.V.Kimbyer g, B.V.Gorbunov, A.Z.genusov, R. Kuziyev va boshkalarini xizmatlari katta buldi.

Tip - deb, deyarli bir xildagi tuproq paydo bo'lish jarayonlari kechadigan, hamda uxshash fizik - geografik sharoitlarda katta maydonlarda shakllangan konkret tuproqlar aytiladi. Tuproq tiplarining eng muxim belgilari., *1) tuproqda tuplanadigan organik moddalar va ular parchalanishi, uzgarish jarayonlarning deyarli bir xil bulishi 2) tuproq minyer al va organik minyer al moddalar sintezidagi jarayonlarning bir xilligi 3) moddalar migratsiyasi va 4) turok profili tuzilishining bir xilda bulishi 5) tuproq unumdorligini oshirish tadbirlari yagona yunalishda olib borilishi. Tuproq tiplari ekologik - genetik sinflar va katorlarga birlashtiriladi.*

MDHda 2 ta ekologik-genetik sinf va 2 ta genetik katorlar ajratilgan. xozirda MDHda 100ga yaqin tuproq tiplari, O'zbekistonda 22 tip va 59 tipchalar ajratilgan.

Tipcha - tuproq tiplari orasida ajratiladigan taksonamik birlik bulib, asosiy hamda kushimcha tuproq paydo kiluvchi jarayonlarning borishidagi ayrim sifatli farklar bilan harakter lanadi. Tipchalarga bulayotganda tuproq paydo kiluvchi jarayonlarni zonal (shimoldan janubga karab) uzgarishi bilan birga fatsial (sharkdan garbga karab) uzgarishi xam e'tiborga olinadi.

Avlod - tipchalar orasidagi tuproq gruppalarini o'ziga birlashtiradi. Tuproqlarning genetik xususi yatlari (ona jinlar tuzilishi va tarkibi, grunt suvlar tarkibi) ko'plab maxalliy sharoitlarning tuproq paydo bo'lish jarayonlariga ta'siri natijasida (sho'rxoklanish, sho'rtoblanish, karbonatlanish vaxakozo.) yuzaga keladi.

Tur - avlodlar orasida ajratiladigan tuproq gruppalari bulib, tuproq paydo kiluvchi jarayonlarning borish jadalligiga kura ajratiladi(gumus tuplanishi, chukurligi, sho'r lanish darajasi, yer oziyalanish darajasi v.x.k.), tur tuproq bo'lish jarayoning mikdor jixatlarini aks ettiradi.Tur xili - tuproqning yukori katamlari va ona jinlarining mexanik tarkibiga kura ajratiladi.

Razryad -tuproq ona jinlarining kelib chikishi asosida bulinadi.

Tuproqshunoslikda - nomenklatura deganda tuproqlarning hossalari va klassifikatsiyada turgan urniga karab nomlanishi tushuniladi. Tuproqlar diagnostikasi - klassifikatsiyalashdagi muayyan bulimiga kiritish uchun imkonini byer adigan tuproqning aloxida belgilari yigindisi xisoblanadi.

Tuproqlarning kenglik buyicha tarkalishida ma'lum geografik konuniyat mavjud. Tekislik tyer ritoriyalari buylab tuproqlarning tabiiy sharoitlari deyarli bir xil bulgan muayyan

geografik kengliklarda ma'lum tuproq tiplar tarkalishini gorizontal zonallik deyiladi. Tog'li ulkalarda tuproqlarning, tekisliklardagi kengliklar buylab tarkalgan tuproqlar singari, vyer tikal yunalish buyicha almashinishini vyer tikal zonallik deyiladi. hozirgi vaktida tuproqlarni geografik rayonlashtirishda taksonomik birliklarining kuyidagi sitemasi kabul kilingan., tuproq-bioiklim mintakasi, tuproq - bioiklim xududi, tuproq zonasi, tuproq zonachasi, bioiklim fatsiyasi, tuproq provinsiyasi, tuproq okrugi va tuproq rayoni. Tuproq - bioiklim mintakasi taxminan tyer mik mintakalarga tugri keladi. Ushbu mintaka uzining atmosfer a yog'inlar i bilan namlanish darajasiga kura kuyidagi xududlarga bulinadi., nam (gumid va ekstragumid), utuvchi (subgumid va subarid) va kuruk (arid va ekstraarid).

Tuproq zonasi - tekis tyer ritoriyalarni tuproq geografik rayonlashtirishdagi asosiy birlik xisoblanadi. Tuproq zonasi muayyan tuproq tiplarini ba'zan gidrazonal tuproqlarni uz ichiga oladigan tuproq bioxududlari maydonining bir qismidir.

Tuproq zonachasi tuproq tuproq zonasining bir qismi bulib, zonal tuproqlar orasida ma'lum tuproq tipchalari ifodalangan buladi.

Tuproq fatsiyasi - tuproqlar uzining tempyer atura rejimi va mavsumiy namlanishi bilan fark kiladigan tuproq zonasining bir qismi xisoblanadi. Tuproq provinsiyalari - maxalliy tuproq hosil bo'lish hususiyatlari bilan farklanadigan tuproq zona yoki zonachasining bir qismi aytiladi.

Tuproq okrugi - tuproq provinsiyasining bir qismi bulib, tuproq paydo bulishiga ta'sir etuvchi omillar., joyning relefi, iklimi, o'simliklari, gidrogeologik hossalari singari o'ziga xos hususiyatlari bilan haraktyer lanadi.

Tuproq rayoni - tuproq okrugining bir qismi bulib, tuproq koplaminig bir xilligi bilan ajralib turadi hamda tuproqning samarali unumdorligini oshirishga karatilgan deyarli bir xildagi tadbirlarni olib borishni talab etadi.

MDH tyer ritoriyasida 1) *sovuk,(kutbiy)*,2) *Mu'tadil sovuk (boreal)*, 3) *mu'tadil (subboreal)*,4) *mu'tadil ilik (subtropik)* kabi tuproq bioiklim mintakalari ajratiladi. O'zbekistonda ikkita tuproq - bioiklim mintakasini ajratadi., mu'tadil va ilik subtropik. Tuproq geografik rayonlashtirishning umumiy sxemasiga kura O'zbekiston tyerritoriyasida o'ziga xos y provinsiya,gu okrug va 63 tuproq rayonlari ajratiladi.

Savollar.

- 1.MDHda uchraydigan tuproq-bioiklim mintakalarini haraktyer lab byer ing.
2. Cho'l (arid) zonasi tuproqlarining morfogenetik hususiyatlaridagi farklar asosida kandy provinsiyalarga ajratiladi.
- 3.Introzonal tuproqlar deganda kandy tuproqlar tushuniladi.

4-MAVZU. TUPROQLARLARNING XOSIL BULISHI VA UNING BIOLOGIK ASOSLARI.

Reja.

1. Asosiy tuproq paydo qiluvchi ona jinslar
2. Tuproq paydo qiluvchi jinslarning minyer alogik va mexanik tarkibi.
3. Tuproq ona jinsi va tuproqning mexanik tarkibi.
4. Tuproqlarning va jinslarning mexanik tarkibiga kura klassifikatsiyasi.
5. Mexanik tarkibining ahamiyati.

Tayanch tushuncha. *Tabiatda ozuqa moddalarini katta (geologik) va kichik (biologik) doira aylanishi. Tuproq hosil bo'lishi tirik organizmlar va tog' jinslarining o'zaro aloqadorligidan iborat jarayen ekanligi. Uning mohiyati. Tuproq hosil bo'lishida yuzaga kelayotgan maxsulotlarning shakllanishi. Tuproq hosil qiluvchi omillar (iqlim, o'simlik, hayvonot dunesi, relef, vaqt, tuproq hosil qiluvchi ona jinslar va inson faoliyati) ning tuproq hosil bo'lish jarayenidagi roli.*

Tuproq mexanik tarkibi va fizikaviy hossalari. Mexanik elementlar klassifikatsiyasi. (N.A. Kachinskiy bo'yicha), mexanik elementlar kimeviy va minyer alogik tarkibini tuproq hossalari o'zgarishidagi ahamiyati.

Mexanik tarkibiga ko'ra tuproq klassifikatsiyasi. Tuproqlarga byer iladigan ishlov usullari va muddatlarini mexanik tarkibga ko'ra qo'llanilishi. Tuproqning umumiy fizik hossalari to'g'risida tushincha. Solishtirma, xajm og'irliklari va g'ovaklik (kavaklik), ularni tuproq unumdorligiga ta'siri. Tuproq fizik hossalari yaxshilash yo'llari.

Adabiyotlar. 1,2,4,6,10,11,12.

Mustaqil tabiiy jism-tuproq kattik (minyer al va organik zarrachalar, suyuq (tuproq yer itmasi), gazsimon (tuproq xavosi) va tirik jonivorlar tuproq organizmlari kabi bir-biri bilan bevosita bog'liq bulgan turli kislardan iborat ko'p fazali dispyer s (turli zarrachalar tuplamidan tashkil topgan sistemadir.

Tuproqning minyer al qismi uning massasiga nisbatan 50-90% ni tashkil etib organogen (torfli) tuproqlarda esa 1-10% atrofida buladi. Turli omillar, jumladan o'simlik va mikroorganizmlar ta'sirida minyer al qismi uzgarib tuproqqa aylanayotgan govak xoldagi tog' jinslariga tuproq paydo qiluvchi yoki ona jinslar deb ataladi. Ona jinslar tuproqning matyer ial asosi bulib tuproq paydo qiluvchi jinslarning mexanik, minyer alogik va kimyoviy tarkibi, shuningdek fizik, kimyoviy, fizik-kimyoviy hossalari unda shakllanayotgan tuproqlarga bevosita ta'sir etadi.

Turtlamchi davr chukindi jinslari tub (magmatik va metamorfik) jinslarning nurashi va ular maxsulotlarining suv, iqlim, shamol va muzliklar ta'sirida kayta yotkizilishi natijasida hosil

buladi.

Tog' jinslarining tarixi bir-biri bilan bevosita bog'lik fizik, kimyoviy va biologik turlarga bulinadi. Ona jinslar kelib chikishiga kura kuyidagi gruppalarga bulinadi., Elyuvial, delyuvial, allyuvial, kul, prolyuvial, muz yotkiziklari, dengiz, eol yotkiziklari va lyoss jinslariga bulinadi.

Elyuvial jinslar yoki elyuviy-tub jinslar nurash maxsulotlari-ning nurash kobigida,uz joyida kolib tuplanishidan hosil buladi.

Delyuvial jinslar yoki delyuviy deb, nurash maxsulotlarining yomgir va yer igan kor suvlari ta'sirida kiyaliklarning kuyi kismlari va tog' yonbagirlariga keltirib tuplashidan hosil buladigan yotkiziklarga aytiladi.

Allyuvial yotkiziklar yoki allyuviy-doimiy okar suvlar-daryolar faoliyati bilan bog'lik yotkiziklardir. Toshkinlar natijasida daryo soxillari va daryo buylarida ko'p tuplanadi.

Allyuvial yotkiziklar Amudaryo, Sirdaryo, kashkadaryo, Zarafshon, Surxondaryo, Chirchik, Oxangaron, Murgab, Tajan daryolari vodiylarida soxil va deltalarda keng tarkalgan bulib ko'pgina Gidromorf tuproqlarning ona jinsi xisoblanadi. Kul-allyuvial yotkiziklar kul va allyuviy jinslardan tashkil topgan.Bu jinslar baxorda yer igan muz suvlvrning pastkam tekisliklaridagi xavza-larida hosil buladi. Sho'r kullar kurigach sho'rxoklarga aylanadi.

Prolyuvial yotkiziklar yoki prolyuviy-tog'li ulkalarda baxorda yer igan kor suvlari va vaktincha kuchli jala yogin suvlari-sel okimlari natijasida hosil buladi. Prolyuviy tog' yonbagirlari va tog'oldi yoyilma konuslarida keng tarkalgan.

Muzlik yotkiziklari yoki morenalar-muzliklar keltirilib aralash xolda yotkizilgan gil, kum, kirrali va silliklangan shagal toshlardan iborat jinslardir. o'rta Osiyoda muzlik yotkiziklari maydoni uncha ko'p emas.Baland va o'rta tog'li rayonlarda tarkalgan.

Dengiz yotkiziklari.Bu jinslar kadimgi dengizlar urnida va turtlamchi davrda dengizlar transgressiyasi va regressiyasi natijasida hosil bulgan yotkiziklardan iborat. Dengiz yotkiziklari odatda katlamli bulishi, yaxshi saralashganligi va tuzlarni ko'p saklashi bilan haraktyer lanadi.

Eol yotkiziklari shamolning turli tog' jinslari zarrachalarini uchirib olib ketishi va yotkizishi natijasida hosil buladi. SHamol faoliyati, ayniksa kuruk iklimli Cho'l zonasida bulib, kum barxanlari, kum tepachalari, mu'tadil iklimli dengiz kirgoklari hamda daryo vodiylarida o'ziga xos kum tepalar-donalar shaklidagi releflar yuzaga keladi. Lyoss va lyossimon yotkiziklarga lyoss va lyossimon kumluklar kabi o'ziga xos kator belgilari bilan ajralib turadigan turtlamchi davr yotkiziklari kiradi.

Lyoss va lyossimon jinslarda tabiiy unumdorligi yukori bulgan buz tuproqlar,kora,kashtan tuproqlar hosil buladi.

2. Birlamchi minyer allarga magmatik va metamorfik jinslarning mexanik nurashi natijasida kimyoviy jixatdan uzgarmasdan g'ovak jins lar va tuproqlarda tuplanadigan minyer

allar kiradi.

Ikkilamchi minyer allar deb asosan magmatik jinslar va birlamchi minyer allarning kimyoviy va biologik nurashi natijasida hosil bulgan minyer allarga aytiladi. Demak, agronomiya amaliyotida tuproqning nafakat tarkibi balki hossalari xam e'tiborga olinishi lozim

1. Jinslar va tuproqlardagi turli ulchamli aloxida zarrachalar mexanik elementlar deyiladi. Kelib chikishiga kura mexanik elementlar, minyer al, organik va organo-minyer al zarrachalardan iborat.

2. Tuproq yoki jinslardagi turli katta-kichiklikdagi mexanik elementlarning protsent bilan ifodalanadigan nisbiy mikdorlariga mexanik tarkibi deb ataladi. Tuproq va jinslarning mexanik tarkibi uning fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy hossalariiga karab bir nechta gruppalarga ajraladi.

Mexanik tarkibning klassifikatsiyasida «Fizik kum» va «Fizik loy» fraksiyalarining nisbati asos kilib olingan. Demak, mexanik tarkibini aniklanayotganda tuproqlar kelib chikishining genetik hususiyatlariga e'tibor byer ish lozim.

3. Tuproqning mexanik tarkibi eng muxim fundamental hossalari va unumdorligini belgilovchi asosiy kursatkichlaridan biri bulib, birinchi navbatda uning agronomik axamiyati kattadir. Tuproqning suv utkazuvchanligi, nam sigimi kabi hossalari hamda xavo-suv, issiklik kabi rejimlari mexanik tarkibi bilan bevosita boglik bulib sug'orish va zax kochirish melioratsiyasida bu kursatkichlar muxim rol uynaydi.

Mexanik tarkibiga kura yer ga ishlov byer ish sistemasi, dala ishlarining muddatlari, ugitlash normasi, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish sxemalarini kabilar belgilanadi.

Mexanik tarkibi baxolanayotganda shuningdek qishloq xo'jalik ekinlarining biologik hususiyatlari va ularning tuproq sharoit-lariga bulgan talabchanligiga xam e'tibor byer ish lozim. Masalan kartoshka va ko'pchilik sabzavot ekinlari uchun kumlok va yengil kumok tuproqlar ancha kulaydir.

Tuproq strukturasi-tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini belgilovchi muxim agronomik hossadir. Tuproqning kator fizikaviy, fizik mexanik hossalari, suv-xavo, issiklik va ozik rejimi hamda tuproqda kechadigan mikrobiologik jarayonlar, uning strukturasi bilan bevosita boglik.

Tuproq paydo bo'lish jarayonlari natijasida tuproqdagi turli mexanik elementlar bir-biri bilan (asosan gumus va kalsiy ta'sirida) birikib, har xil donador bulakchalar (uvokchalar) hosil kiladi va unga struktura agregatlari yoki bulakchalari deyiladi.

Tuproqning aloxida agregatlar (bulakchalar)ga ajralib (bulinib) ketish kobiliyatiga struktura xolati, turli ulcham, shakl va sifat tarkibli struktura agregatlarning yigindisiga uning strukturasi deb ataladi

1. Turli tabiiy sharoitlarda hosil buladigan tuproqlarning struktura agregatlari nafakat katta

kichikligi, balki shakli bilan xam fark kiladi. har bir tuproq tipi uchun o'ziga xos struktura harakter li. Strukturaning asosan., kubsimon, prizmasimon va plitasimon kabi uch shakliga ajratadi.

2. Agronomik nuqtai nazardan tuproq strukturasi ulchami (katta kichikligi) ga kura kuyidagi gruxlarga,

- 1) >10 mm, kesakli struktura
- 2) 10-0,23 mm gacha makrostruktura
- 3) 0,23-0,01 mm gacha dagal makrostruktura
- 4) 0,01 mm dan kichik nozik mikrostrukturaga bulinadi.

Strukturaning eng muxim kursatkichlaridan biri, uning kovakligidir. Eng yaxshi strukturali kora tuproqlarda agregatlar oraligidagi kovaklik, uning xajmiga nisbatan 30% ga yakin bulib, tuproqlarda eng kulay suv-xavo hossalari yaratadi. Tuproqdagi suvga chidamli agregatlarning hosil bulishida yomgir chuvalchanglarining roli xam aloxida axamiyatga ega. Bu strukturalar syer govak, mustaxkam bulishi bilan birga, o'simliklar uchun zarur ozik moddalarni xam ko'p saklaydi.

Agronomik nuqtai nazardan mustaxkam strukturalar, tuproqda hosil buladigan suvda yer imaydigan yoki kiyin yer iydiga minyer al moddalar (kalsiy karbonati, kalsiy fosfati, temir, alyuminiy oksidlariva boshkalar) ta'sirida ruy byer adi.

2. Ilgari aytilganidek, agronomik nuqtai nazardan tuproqning xaydalma katlamida 10 dan 0,23 mm gacha bulgan makroagregatlarning axamiyati katta. Makroagregatlarga ajralib turadigan tuproqlarga strukturali, 0,25mm dan kichik mikroagregatlar ko'p bulgan tuproqlarga strukturasis tuproqlar deyiladi. Strukturali tuproqlar strukturasis tuproqlarga nisbatan uzining govak kovushmasi, kam zichligi va yukori kovakligi hamda kovakliklarning sifat kursatkichlari bilan farklanadi. Demak, strukturali tuproqlarda strukturasis yer larga nisbatan suv-xavo issiklik va ozik rejimlari ancha kulay. SHuning uchun xam bu tuproqlar unumdor xisoblanadi. Tuproqdagi agronomik jixatdan kimmatli strukturalarning buzilish sabablari va xilma-xil bulib, ularni kuyidagi uch gruppaga birlashtirish mumkin.

1. Strukturaning mexanik ravishda buzilishi. Tuproqning yuza kismlariga tushadigan atmosfer a yog'inlar i ta'sirida va shuningdek yetilmagan nam tuproq yoki juda kuruk xolatdagi tuproqlarni ko'plab marotaba xaydash hamda unda ogir mashinalar, ish kurollaridan foydalanish natijasida struktura buziladi.

2. Strukturaning fizik-kimyoviy buzilish sabablari. Ana shunday buzilishga singdirilgan kationlar ko'prok ta'sir kursatadi. SHuning uchun xam kimyoviy melioratsiyalash (kislota yer larga oxak solish, sho'rtoblarni gipslash) strukturani saklanib kolishida muxim rol uynaydi.

3. Strukturani biologik yul bilan buzilish sababi, asosan ayer ob sharoitdagi

mikroorganizmlarning xayot faoliyati bilan boglik.

Tuproq strukturasi buzilib ketish sabablarini e'tiborga olib strukturani saklab kolishga karatilgan kuyidagi muxim tadbirlardan samarali foydalanish zarur.

1) Tuproqning hossalari va o'ziga xos hususiyatlariga karab yer ga ishlov byer ishning samarali sistemalaridan foydalanish

2) yer uz vaktida yetilgan xolatda ya'ni agregatlari bir-biriga yopishib,kesaklar hosil kilmaydigan paytda xaydalishi

3) Ekinlardan yukori hosil olishni ta'minlashda organik, minyer al ugiltardan muntazam va samarali foydalanish hamda shu bilan bir katorda strukturani yaxshilab borish chora-tadbirlarini olib borish agronomiyadagi zarur tadbirlardandir.

3. Tuproqning mexanik tarkibi va struktura xolati bilan bevosita boglik bulgan fizikaviy hossalari hamda unda kechadigan fizikaviy jarayonlar tuproqning suv, xavo va issiklik rejimlari, shuningdek o'simliklarning usib rivojlanishida juda katta axamiyatga ega. Tuproqning fizikaviy hossalariga, uning strukturasi suv, xavo, issiklik, umumiy fizik-mexanikaviy hossalari kiradi. Umumiy fizikaviy hossalariga tuproqning zichligi, kattik fazasining zichligi va kovokligi singlarlar kiradi. Tuproq kattik fazasining zichligi (solishtirma massasi)-ma'lum xajmdagi tuproq kattik qismining 2^0S da shuncha xajmdagi suvga bulgan nisbati xisoblanadi va g/sm^3 bilan ifodalanadi.

Tabiiy xolati saklangan xolda olingan ma'lum xajmdagi tuproq massasiga uning zichligi yoki xajmiy massasi deyiladi.

Tuproqning kovakligi zichligidan kat'iy nazar,uning turli zarrachalari orasida va struktura agregatlari ichida xamma vakt ma'lum mikdorda bushliklar.govaklar mavjud. Bu bushliklarda suv, xavo bulib, o'simliklarning ildizlari, turli mikroorganizmlar, tuproq jonivorlari (chuvalchanglar, xashoratlar va boshkalar) tarkalgan. Tuproqning fizik-mexanik hossalariga plastikligi, yopishkokligi, ko'pchishi va chukishi, ilashimligi, kattikligi, solishtirma karshiligi va fizikaviy yetilishi singlarlar kiradi.

Tuproqning plastikligi. Nam tuproqning har kandy tashki kuchlar ta'sirida uz yaxlitligini buzmagan xolda shaklini uzgartirishi va buni mexanik kuchlardan keyin xam saklab kolish xususiyatiga tuproqning plastikligi deyiladi.

Tuproqning yopishkokligi.Nam tuproqning boshka kattik jismlarga yopishish hossasidir. Jumladan, tuproqning ish kurollariga va mashinalarning harakat kismlariga yopishuvi natijasida mexanizmlarning tortish karshiligi oshadi va yer ga ishlov byer ish sifati pasayadi.

Tuproqning bukishi va chukishi.Nam tuproqlarning uz xajmini kattalashtirish kobilyatiga bukish(ko'pchish) kuriganda esa uz xajmini kichraytirishiga uning chukish hossasi deyiladi. Dastlabki xajmiga nisbatan foiz bilan ifodalanadi.

Tuproqning ilashimligi. Tuproq zarrachalarini ajratib yuborishga ta'sir etadigan tashki kuchlarga karshi tura olish kobiliyati ilashimlik deyiladi.

Tuproqning kattikligi, tabiiy xolatdagi tuproqlarning turli bosimdagi kuch ta'sirida sikilishi va bulinib ketishiga karshi tura olish kobiliyati xisoblanadi.

Tuproqning solishtirma karshiligi. Tuproqqa ishlov byer ish uchun sarflanadigan kuchlarning umumiy kursatkichidir. Solishtirma karshilik deb, tuproq katlamini kirkish, agdarish uchun hamda kurollar yuzasiga tushadigan karshilikni yengish uchun sarf bulgan kuch mikdoriga aytiladi.

Tuproqning fizik yetilganligi kam kuch sarflanib yaxshi va sifatli ishlanish xolatiga tuproqning fizikaviy yetilganligi deyiladi. Tuproqning bu xolati uning namligi bilan belgilanadi va tulik nam sigimiga nisbatan, turli tuproqlarda bu namlik 50% dan 90% gacha uzgarib turadi. Demak, tuproqning umumiy fizik hossalari va fizik-mexanik hossalari ekinlarni ustirish texnologiyasida e'tiborga olinishi kerak.

Savollar.

1. Tuproq unumdorligida strukturani ahamiyati.
2. Tuproqning fizik-mexanik hossalari nimalarga ko'prok bog'liq.
3. Tuproq paydo bulishida ona jinsning ahamiyati.
4. Tuproq unumdorligida kaysi bir zarrachalarning ahamiyati katta

5-MAVZU: Tuproq tarkibidagi suv, tuproqning suv xossalari va suv rejimi. Tuproq tempyer aturasi.

Reja:

1. Tuproqning suv xossalari.
2. Tuproqning suv rejimi.
3. Tuproqning issiqlik xossalari. Tuproqlarning issiqlik rejimi.
4. Singdirish kobiliyatining turlari.
5. Tuproqdagi almashinmaydigan singdiriluvchi kationlar, anionlar

Tayanch tuchunsha. *Tuproqda kechadigan kimeviy va mikrobiologik jarayenlarda hamda o'simliklarni rivojlanishida suvning ahamiyati. Tuproqdagi suv formalari va ulardan o'simliklarni foydalanish. Tuproqning suv hossalari, suv o'tkazuvchanlik, suv ko'taruvchanlik va nam sig'imi. Tuproqning suv balansi va uning elementlari. Tuproq suv rejimi tiplarining mintaqaviy o'zgarishi va ularni tartibga solish.*

Tuproqning suv hossalari va suv rejimi. Tuproqda kechadigan kimyoviy va mikrobiologik jarayonlarda hamda o'simliklarni rivojlanishida suvning ahamiyati. Tuproqdagi suv formalari

va ulardan o`simliklarni foydalanish. Tuproqning suv hossalari. suv utkazuvchanlik, suv kutaruvchanlik va nam sigimi.

Adabiyotlar 1.2.3.4.5.6.7.8.9.

Suv tuproqning muhim tarkibiy qismi va unumdorlikning eng asosiy faktorlarining biridir. Chunki barcha biologik proseslar suv yetarli miqdorda bo`lgandagina ro`y beradi, suv rejimini boshqarish esa, ko`p hollarda qishloq xo`jalik ekinlari hosilini oshirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Suv molekulasida ikkita bir valentli vodorot ionida va bitta ikki valentli kislorod ionidan tarkib topgan. Ionlar xuddi teng yonli uchburchakning tepalarida joylashganday dipole hosil qiladi. Uning kislorod ioni joylashgan bir uchi manfiy zaryadli ikkita vodorot ioni joylashgan qarama-qarshi uchi esa musbat zaryadli bo`ladi. Elektrotabiatli yer kin kuchlarning mavjudligi suv molekulalarining bir-biriga tortilish imkoniyatini tug`diradi va digidrol, uch- to`rt gidrol hosil qiladi. Digidrol eng barqarordir. Suv molekulasining dipolligi tufayli ionlar gidrotasiyasi ro`y beradi. Ionlar zaryad miqdoriga qarab har xil miqdordagi suv dipollarini o`ziga tortib olishi mumkin; bu dipolar bir necha qavat orentirlashgan molekulalardan iborat gidrat qobiq hosil qiladi.

Tuproqdagi suv manbaya yog`in –sochin bazi hollarda grunt suvlaridir. Suv qattiq, suyuq va gazsimon holatda bo`lishi mumkin. Tuproqqa tushadigan suyuq suvga har xil kuchlar: og`irlik kuchi, tuproq zarrachalariga molekulyar tortilish kuchi, molekulalarning bir-biriga yopishish kuchi va kapillyar kuchlar tasir qiladi. Suv miqdoriga qarab, yuqorida sanab o`tilgan kuchlardan birortasi asosiy rol o`ynaydi. Bu kuch tuproqdagi suvning holatini, uning harakatlanish qonuniyatini va o`simliklari tomonidan qay darajada o`zlashtirilaishini belgilaydi.

Tuproqda suv quyidagi holatlarda bo`ladi: kimyoviy birikkan suv, kristallizatsion suv, bug`simon suv, gigroskopik suv, pardali suv, kapillyar suv, gravitatsion suv, grunt suvi.

Gigroskopik va pardali suv ko`pincha adsorbsialangan suv deyiladi va uni mustahkam birikkan va bo`sh birikkan suvlarga ajratadilar.

Kimyoviy birikkan yoki konstitutsion suv minyer al va organik moddalar tarkibiga kiradi. Bu suv kimyoviy kuchlarning tutib turishi natijasida faqat yuqori tempyere ature tasiridagina ajralib ketishi mumkin shu bilan birga u ajralib ketganda dastlabki modda yemiriladi va yangi moddalar hosil bo`ladi suvning bunday holatidagi moddalarga tuproqning colloid soz minyer allari va chirindili moddalari misol bo`ladi. O`simliklar bu suvdan foydalana olmaydi.

Kristallizatsion suv ko`p moddalar, masalan, gipsning ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) kristallik to`riga kiradi; u faqat isitilgandagina ajralib ketishi mumkin. Kristallizatsion suv ajralib chiqqach, kristallik to`r buzilib ketadi. O`simliklar bu holatdagi suvdan ham foydalana olmaydi.

Bug`simon suv. Tuproqning hovo bilan to`lgan to`lgan bo`shliqlari o`zida bug`simon suvni tutib turadi. Bu suv miqdori tuproqning namligiga bogliqdir. Bug`simon suv g`oyat harakatcha bo`ladi; bug`simon suv elastikligi kam bo`lgan joyga tomon diffuziv yo`l bilan harakat qiladi. Bug`simon nam malum sharoitda suyuq holatga o`tadi. Bu proses kondensiyasi deyiladi.

Kondensatsiya uch xil bo`ladi: molekulyar, kapillyar va tyer mik kondensatsiya. Molekulyar kondensatsiya bu molekularning yer betidagi yer kin molekulyar kuch tomonidan tuproq zarrachalariga tortilishi va bir necha qavat suv molekularidan iborat pardaning hosil bo`lishi natijasida yuz byer adi. Bu proses sorbsiya deb, tuproq zarrachalari yuzasida kondensatsiyalashgan nam esa gigraskopik kondensatsiya deb ataladi.

Kapillyar kondensatsiya kapillyar botiq shakildagi menisklar yuzasida ham ro`y byer adi; bu esa menisk ustidagi bug`larning tekis suv yuzasidagi bug`larga nisbatan kamroq elastikligidan kelib chiqadi.

Suv bug`lari yuqori tempyer aturali qatlamlardan past tempyer aturali qatlamlarga o`tsa eng muhim tyer mik kondensatsiya yuz byer adi. Bu esa havoning tempyer aturaga qarab, malum miqdordagi bug`simon namligini o`zida saqlay olishi bilan bog`liqdir. Tempyer ature ko`tarilgan sari havodagi bug`simon namning absalyut miqdori orta boradi. Sovib qolgan qatlamga bir oz issiq qatlamdan bogsimon nam kelib kirsar. Havo suv bug`lariga to`la to`yinib bo`lgach, ortiqcha bug`lar past tempyer ature tasirida suyuq holatga o`tadi. Bu proses tyer mik kondensatsiyadeyiladi.

Gigroskopik suv mustahkam birikkan suv kategoriyasiga kiradi. Bu suv bug`simon suvning zarralar yuzasida kondensatsiyalanishi natijasida vujudga keladi. Tuproqning gigraskopligi uning sostaviga va zarralarining katta kichikligiga bog`liqdir. Zarralar qancha mayday bo`lsa, gigraskopiklik ham shuncha katta bo`ladi.

Havoning namligi kam bo`lsa, gigroskopik nam miqdori dastlab tezda orta boradi., keyin esa kamayadi. Bu hodisa ko`p qavatli pardaning vujudga kelishi bilan bog`liqdir. Nisbiy namlik katta (80% va undan ortiq) bo`lganda gigroskopik nam miqdorining bir xilda bo`lmagan ortishi kuzatiladi. Bu esa kapillyar kondensatsiya bilan bog`liq.

Gigraskopik nam, ayniqsa uning birinchi qatlamlari zarra yuzasiga juda katta kuch bilan tortilar ekan, juda zich bo`ladi- uning hajm og`irligi 1.7 ga yetadi, yani u o`z xossalariga ko`ra qattiq jismga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bun am- 78 gradusdan past tempyer aturadagina muzlashi mumkin. Tuproqdagi namlik miqdori maksimal gigraskopikning 1.5 -1.3 ga teng bo`lgandagina o`simliklarning so`lishi aniqlangan. Bu miqdor ildizlarning so`rish kuchi turlicha bo`lgan osimlik turlariga qarab o`zgaradi. Masalan, qurg`oqchilikka chidamli bazi o`simliklar bir yarim gigraskopiklikdan kam miqdordagi namlikda ham namni o`zlashtirishi mumkin, boshqalari

esa namlik bu miqdordan ortiq bo'lgandagina namni o'zlashtira oladi. Taxminiy hisoblash uchun bir yarim miqdordagi maksimal gigraskopiklik namni o'zlashtirish chegarsi qilib olingan.

Mustahkam birikkan suv minyer al tuzlar va suvda yer imaydigan boshqa moddalarni yer ita olmaydi. Shuning ucnun ham uni yer itaolmaydigan hajm deyishadi. Bu suv elektorni o'tkazmaydi. Quruq tuproqqa suv quyilganda issiqlik ajralib chiqadi; bunga ho'llanish issiqligi deyiladi. Ho'llanish issiqligi miqdori tuproq qattiq fazasining yalpi yuzasiga bog'liqdir. Tuproq mexanik tarkibiga ko'ra qanchalik og'ir bo'lsa va unda kolloidlar qancha ko'p bo'lsa, uning solishtirma yuzasi shuncha katta bo'ladi hamda u namlanganda shuncha ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Bu hodisa suv molekulalarining sorbsiya natijasida tuproq yuza enyer giya miqdorining kamayishiga bog'liqdir.

Gigraskopik nam o'simliklar o'zlashtiraolmaydigan nam kategoriyasiga kiradi.

Pardali (bo'sh birikkan)suv. Pardalisuv harakatchan bo'lganligi sababli, unda yer igan tuzlar biroz nam gorizontlardan birmuncha quruq gorizinlarga tomon harakatlanadi.

Kapilyar suv – tuproqning kapillyarlik xosasiga ega bo'lgan mayda bo'shliqlarini to'ldiradigan namdir. Suyuqlikning yuza qatlami molekulalari pastdagi molekulalarining bir tomonlama tortishi natijasida go'yo suyuqlik ichiga tortiladi. Natijada molekulalarning yuza qatlami pastdagi qatlamlarni bosadi .Bu bosim juda katta – 10700 atm ga tengdir

Gravitatsion suv – og'irlik kuchi tasirida kapilyar bo'lmagan yirik bo'shliqlardan pastga yer kin sizilib tushuvchi suvdur .Bu suv tuproqqa sizib kirgan sari kapilyar suvga aylanadi .

Tuproqning vyer tical profilida namlikning o'zgarib turishiga suvning tuproqqa tushishi ,xarakati va sarf bo'lib ketishiga tuproqning s u v r e j i m i deyiladi.

Muzlagan (to'ngan) suv rejimi tipi. Doimiy muzlagan yer qatlami yuzada joylashgan shimoliy sovuq oblastlarga xosdi.

Yuviladigan suv rejimi tipi. Shimoldagi o'rmonli oblastlarga xosdir, bu yer da yog'in miqdori bug'lanishga qaraganda ko'p shuning uchun tuproq syer nam bo'ladi.

Davriy yuviladigan suv rejimi tipi. O'rmon – dasht zonasining tuproqlari va dashtlardagi tekisliklarning past yer laridagi ishqorsizlangan, qora tuproqlar, qora tuproqli – o'tloq tuproq va kashtan o'tloq tuproqlar uchun xarakterlidir.

Yuvilmaydigan suv rejimi tipi Dasht,quruq dash va cho'l zonalaridagi grunt suvlari chuqurda joylashgan xamda quruq iqlimli tuproqlarga xosdir .Bu tipdagi suv rejimida tuproq – grunt qatlami boshdan oyoq namlanmaydi.

